

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

UMAROV ALOVIDDIN OCHILOVICH

**QOVUSHOQ-ELASTIK MUHITDAGI ELLIPTIK SILINDRGA
GARMONIK TO‘LQINLAR TA‘SIRINING XUSUSIYATLARI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Бухоро – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-
mathematical sciences**

Umarov Aloviddin Ochilovich

Qovushoq-elastik muhitdagi elliptik silindrga garmonik to'liqlar ta'sirining
xususiyatlari..... 3

Умаров Аловиддин Очилович

Особенности воздействия гармонических волн на эллиптический цилиндр в
вязкоупругой среде 21

Umarov Aloviddin Ochilovich

Features of the action of harmonic waves on an elliptical cylinder in a viscoelastic
medium..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

UMAROV ALOVIDDIN OCHILOVICH

**QOVUSHOQ-ELASTIK MUHITDAGI ELLIPTIK SILINDRGA
GARMONIK TO‘LQINLAR TA‘SIRINING XUSUSIYATLARI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Бухоро – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FM 755 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) institut veb-saytida (www.buxmti.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarov Ismoil Ibrohimovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mardonov Botir Мардонович
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mirzayev Ibraxim
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dissertatsiya himoyasi 2024 yil «22» yanvar kuni soat 15:00 da Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli Ilmiy kengash majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahar, Q. Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida (№ 453 raqam bilan ro'yxatga olingan) tanishish mumkin. Manzil: (200100, Buxoro shahar, Q. Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99895) 604-44-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «10» yanvar kuni tarqatildi.

(2023 yil «28» noyabrda № 7 raqamli reyestr bayonnomasi).



MLX.Teshaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d. (DSc)

Z.I.Boltayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d. (DSc)

MLZ.Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda qovushoq-elastik muhitlarda joylashgan ko'ndalang kesimi turlicha bo'lgan silindrik jismlarda seysmik (yoki turg'un garmonik) to'lqinlar ta'sirida hosil bo'ladigan dinamik kuchlanish-deformatsiya holati, to'lqinning muhitdagi jism bilan o'zaro ta'siri hamda difraksiyasi muammolarini yechishda takomillashgan hisoblash usullarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida yer osti inshootlarining tarkibiy qismi bo'lgan elastik va qovushoq-elastik uzun qatlamlarda hosil bo'ladigan dinamik kuchlanishlar va deformatsiyalarni kamaytirish, ulardagi to'lqin yuklanish dinamikasini tadqiq qilish va baholashning yangi usullarini amalyotga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan ko'p qatlamli murakkab fizik xossalarga ega bo'lgan va muhit bilan aloqada bo'lgan silindrik polimer, beton va metall qobiqlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda materialning qovushoq-elastiklik xususiyatini hisobga olib, dinamik masalalarni yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, elliptik ko'ndalang kesimli silindrik suyuqlikli quvurlar tebranishlarini kamaytirishga imkon beruvchi parametrlarning barqarorligini ta'minlash, ko'ndalang kesimi turlicha bo'lgan silindrik ko'rinishdagi jismlarda to'lqin difraksiyasi muammosini o'rganish, ular hosil qiladigan salbiy holatlarni kamaytirish va deformatsiyalanuvchan jism mustahkamligini oshirish, xususiyatlarini aniqlash metodikasini ishlab chiqishga va rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda inshootlarning mustahkamligini o'rganishda ularning dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanuvchanlik holatining xususiyatlarini tadqiq qilish, xavfli kuchlanishlarni aniqlash uchun maqsadli ilmiy tadqiqotlarni olib borib, muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan jismlarning xos tebranishlarini va rezonans holatlarini o'rganish yuzasidan keng tarmoqli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida, jumladan, «...ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash,...»¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, qovushoq-elastik muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan deformatsiyalanuvchan elliptik jism xos tebranish xususiyatlarini aniqlash metodikasini ishlab chiqish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli va 2020 yil 30 iyuldagi PQ-4794 - sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni

tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 avgustdagi 515-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublika fan va innovatsion texnologiyalar rivojlanishining-IV. “Matematika, mexanika, konstruktsiyalar seysmodinamikasi va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Deformatsiyalanuvchan qovushoq-elastik muhitda joylashgan ko‘ndalang kesimi ellips bo‘lgan silindrik jismlarga to‘lqinlar difraksiyasi va muhit bilan aloqada bo‘lgan jismlarning xos tebranishlari masalasi bo‘yicha chet elning ko‘pgina mashhur olimlari Brexovskix L.V., Ilyushin A.A., Gorshkov A.G., Viktorov I.A., Volmir A.S., Shemyakin Ye.I., Guz A.N., Grinchenko V.T., Troyanovskiy I.E., Kiyko I.A., Novichkov Yu.I., Petrashen G.I., Matveyenko V.P., Shardakov I.N., Starovoytov E.I., MikerT., Meytsler A., Deyvis R.M., Mitra R., Uayt, Axenbax J.D., Shafer B.V., San R.I. va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Respublikamiz olimlari tomonidan Raxmatulin X.A., O‘razboyev M.T., Shirinkulov T.Sh., Kabulov V.K., Rashidov T.R., Muborakov Y.N., Mardonov B.M., Sultonov K.S., Mamatqulov Sh.M., Mirsaidov M.M., Xojmetov G.X., Ishanxodjaye A.A., Mavlonov T.M., Abdusattorov A., Mirzayev I., Safarov I.I., Xudoynazarov X., Hasanov B.E., Teshaev M.X., Yuldashev Sh.S., Abduqodirov S., O‘sarov M., Boltayev Z.I. va boshqalar muhit bilan aloqada bo‘lgan silindrik va sferik ko‘rinishdagi jismlarda to‘lqin difraksiyasi (yoki qovushoq-elastik va akustik) masalalarni materiallarning qovushoqlik xususiyatlarini hisobga olib, dinamik kuchlanishlar va deformatsiya holatini hisoblash usullarini rivojlantirishga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shishgan.

Shu bilan birga, ularning ishlarida asosan elastik muhitda joylashgan doiraviy ko‘ndalang kesimli silindrik ko‘rinishdagi jismlarda elastik to‘lqin difraksiyasi muammosi o‘rganilgan. Ideal suyuqlikli silindrik bo‘shliqda tekis elastik to‘lqin difraksiyasi masalasi maxsus funksiyalar yordamida asimptotik yechimlar olingan. Bunday tadqiqotlar bilan asosan AQSh, Rossiya, Ukraina, Xitoy davlatlari olimlari shug‘ullanib kelishmoqda, lekin bo‘lakli bir jinsli silindrik ko‘rinishdagi jismlarda to‘lqin difraksiyasini materialning reologik xususiyatlarini hisobga olib o‘rganish hozirga qadar o‘z yechimini topmagan, bu borada bir qancha muammolar mavjud. Qovushoq-elastik muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lgan hamda ko‘ndalang kesimi ellipsdan iborat elliptik ko‘rinishdagi silindrik jismlarda to‘lqin difraksiyasi va xos tebranishlarni o‘rganish uslubiyoti, algoritmi va dasturini yaratish, hamda yangi masalalar yechish muammosi yetarlicha hal etilmagan. Bu esa shu masalalarni yechishga imkon beradi.

Dissertatsiya mavzusining ilmiy tadqiqot rejasi bajarilgan oliy ta'lim muassasasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishlari Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-01-2020-2024 "Qovushqoq-elastik jismlardagi mexanik jarayonlarni matematik modellashtirish" (2020-2021) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi- qovushqoq-elastik muhitda joylashgan, ko'ndalang kesimi ellipsdan iborat bo'lgan, silindrik quvurlarda garmonik to'lqinlar ta'sirida hosil bo'lgan kuchlanish-deformatsiya holatini o'rganish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish, sonli natijalar olish va ularning tahlili.

Tadqiqotning vazifalari:

qovushqoq-elastik muhitda joylashgan ko'ndalang kesimi ellips bo'lgan silindrik jismlarga bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlarning ta'siri masalalarini materiallarning qovushqoqlik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik qo'yilishini, yechish uslubiyoti va algoritmini ishlab chiqish;

qovushqoq-elastik muhitda joylashgan, ko'ndalang kesimi ellips bo'lgan, silindrik jismlarning xos tebranishlari masalasini, materialning qovushqoqlik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik qo'yilishini, yechish metodikasi va algoritmlarini ishlab chiqish;

qovushqoq-elastik muhitda joylashgan, ko'ndalang kesimi ellips bo'lgan, silindrik jismdagi garmonik to'lqin yuklanishi natijasidagi dinamik kuchlanishlar-deformatsiya holati o'zgarishiga solishtirma baho berish;

muhit relaksatsiya yadrosi amplitudasining o'zgarishini kuchlanganlik-deformatsiya holatiga ta'sirini solishtirma baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida qovushqoq-elastik muhitda joylashgan ko'ndalang kesimi ellips bo'lgan, silindrik jism olingan.

Tadqiqot predmeti qovushqoq-elastik muhitda joylashgan, ko'ndalang kesimi ellips bo'lgan, silindrik jismlarga to'lqinlarning ta'siri masalalarini materiallarning qovushqoqlik xususiyatlari va geometrik parametrlarini hisobga olgan holda matematik modelini rivojlantirish va sonli yechish algoritmini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasining xususiy hosilali integro-differensial tenglamalarini yechish uchun deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi va matematik-fizikaning maxsus funksiyalari orqali yechimni topish, Myuller, Gauss va muzlatish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qovushqoq-elastik muhitda joylashgan ko'ndalang kesimi ellips bo'lgan silindrik jismlarga bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlarning ta'siri masalalarini materiallarni qovushqoqlik xususiyatlarini hisobga olgan holda qovushqoq-elastiklik nazariyasining Lamé tenglamalari asosida matematik qo'yilishi, maxsus funksiyalarga asoslangan yechish uslubiyoti va Gauss, Myuller hamda Laplas usullariga asoslanib algoritmi ishlab chiqilgan;

qovushqoq-elastik muhitda joylashgan, ko'ndalang kesimi ellips bo'lgan, silindrik jismlarning xos tebranishlari masalasini to'lqinning so'nish nazariyasiga

asoslanib, materialning qovushoqlik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmlari ishlab chiqilgan;

muhit va elliptik silindrra dinamik yuklanish ta'sirida muhitda va elliptik silindrda hosil bo'ladigan kuchlanishlarni ellipsning katta o'qini uzaytirish hisobiga doiraviy ko'ndalang kesimli silindrning kuchlanishlariga nisbatan 15% gacha kamaytirish imkonini berishi aniqlangan;

muhit qovushoqlik yadrosini amplituda qiymatining chiziqli oshishiga, kamayishi esa energiya dissipatsiyasi koeffitsientining kamayishiga olib kelishi Myuller va Gaus usullari asosida topilgan;

qovushoq-elastik muhitdagi elliptik ko'ndalang kesimli silindrik jismning kompleks chastotasining qiymati, elastik muhitdagi chastotaning qiymatidan 10% gacha kam bo'lishi Myuller va Gaus usullari asosida topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

deformatsiyalanuvchan muhitda joylashgan, ko'ndalang kesimi ellips bo'lgan, silindrik jismlarga to'lqin yuklanishi ta'sirida hosil bo'ladigan kuchlanish-deformatsiya holati uchun silindrik jismlar mustahkamligini hisoblash usullari ishlab chiqildi;

chegaraviy masalada kompleks chastotalarni chekli sondagi modalarini topish muammosi hal qilindi;

bo'ylama va ko'ndalang to'lqin yuklanish ostidagi deformatsiyalanuvchan muhit va ko'ndalang kesimi ellips bo'lgan silindrik jismdagi kuchlanishlar taqsimoti aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chegaraviy shartlarning korrekt qo'yilishi, keltirib chiqarilgan matematik ifodalarning qat'iyiligi, asoslangan yechish usullaridan tizimli foydalanilganligi, yechimlarning aniqliligi baholashda boshqa tadqiqotchilar yechimlari bilan taqqoslanganligi va ularning natijalariga mos tushganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy ahamiyati deformatsiyalanuvchan muhitda joylashgan, ko'ndalang kesimi ellips bo'lgan jismlarga to'lqin yuklanishi va difraksiyasi nazariyasini rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shishdan iborat.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati esa, deformatsiyalanuvchan muhitda joylashgan, ko'ndalang kesimi ellips bo'lgan, silindrik jismlarga to'lqin yuklanishi oqibatida hosil bo'ladigan kuchlanishlar va deformatsiya holatini yangi qonuniyatlarini o'rganish imkoniyatining paydo bo'lishi, chegaraviy masalada kompleks chastotalarni chekli sondagi modalarini topish muammosini hal qilinishi bilan izohlanadi, qo'yilgan masalalarni yechish uchun algoritmi va dastur ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotdagi dinamik kuchlar ta'sirida elastik va qovushoq-elastik muhitda joylashgan deformatsiyalanuvchan elliptik jismning dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini hisoblash usullari va algoritmi bo'yicha olingan natijalar asosida:

elliptik koordinatalar sistemasida olingan integro-differensial tenglamalardan kompleks koeffitsientli differensial tenglama olish metodikasidan va davriy tashqi kuchlar ta'sirida olingan analitik yechimlarni klassik yadrolar uchun olingan

yechimlar bilan solishtirma baho berish uchun Urganch davlat universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F4-04(05) “Spektral usulni matritsaviy nochizikli evolyusion tenglamalarni yechishda tadbirlari, yurak-qon tomir tizimining biomexanikasi” mavzusidagi fundamental tadqiqotlari ilmiy loyihasida foydalanilgan. (2023-yil 6-apreldagi 01-01/14-11/653-sonli ma’lumotnoma). Natijada bu elastik hamda qovushoq-elastik muhitlardagi tebranishlarning amplitudalariga solishtirma baholash imkonini bergan;

xos son va tebranish formalarini topish algoritmidan Toshkent kimyo-texnologiya instituti davlat ilmiy texnika dasturi doirasida 2016-2020-yillarda bajarilgan OT-F4-01 “Qovushoq suyuqlik oquvchi ko’p qatlamli kompozit quvurlar egri chizikli bo’laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta’sirida chizikli bo’lmagan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o’rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish” mavzusidagi fundamental loyihadan (2023-yil 17-oktyabrdagi 1/01-2930-sonli ma’lumotnoma) foydalanilgan. Natijada bu ko’ndalang kesimi doiraviy bo’lmagan quvurlarning maksimal kuchlanishlarini 15% gacha kamaytirish imkoniyatini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari Xalqaro, Respublika anjumanlarida muhokama qilingan va ma’qullangan, jumladan, 4 ta Xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini nashr etish. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 36 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O’zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 1 tasi respublika va 10 tasi xorijiy nashrlarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, to’rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari shakllantirilgan. Tadqiqotning O’zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga muvofiqligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Qovushoq-elastik muhitdagi silindrga garmonik to’lqinlar ta’sirini o’rganishga bag’ishlangan adabiyotlar tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida, garmonik va noturg’un to’lqinlar ta’sirida chuqur o’rnatilgan silindrik (ko’ndalang kesimi turlicha bo’lgan) quvurlarning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini o’rganishga bag’ishlangan adabiyotlarning qisqacha tahlili keltirilgan, hamda adabiyotlar tahlili asosida

xulosalar qilingan. Deformatsiyalanuvchan muhitda joylashgan ko‘ndalang kesimi doirasimon bo‘lgan silindrik quvurlarga va tonnellarga seysmik va portlash to‘lqinlarini ta’siri masalalarining eksperimental kuzatishlari bo‘yicha va nazariy tadqiqotlar bo‘yicha olingan natijalarining tahlili keltirilgan. Yer osti inshooti va uni atrofidagi gruntning qovushoqligi, hamda yer osti inshooti ko‘ndalang kesimi formasini elliptik bo‘lishini hisobga olib seysmik (uzun) to‘lqinlarni difraksiyasi masalasini yechish metodikasi va algoritmi ishlab chiqilmaganligi asoslab berildi. Bu bob ikki paragrafdan iborat bo‘lib, birinchi paragrafida elastik muhitda joylashgan tonnellar va quvurlarga seysmik to‘lqin ta’sirini (difraksiyasini) o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Ikkinchi paragraf to‘lqinni qovushoq-elastik muhitdagi silindrik qobiqqa ta’sirini qattiq jism mexanikasi usullari yordamida baholashga bag‘ishlangan.

Shunday qilib, qovushoq-deformatsiyalanuvchan muhitda joylashgan ellips ko‘ndalang kesimli silindrik jismdagi to‘lqinlarning difraksiyasini o‘rganishdagi muammolar bo‘yicha ko‘p sonli adabiyotlar bag‘ishlangan bo‘lsada, adabiyotlar tahlilini yakuni bo‘yicha qilingan xulosalardan kelib chiqib, bu muammo o‘zining yakuniy yechimidan uzoq ekanligi kelib chiqadi. Bu muammoni hal etishda nazariy asos yaratish, chegaraviy masalani qo‘yilishi, yechish metodikasini, algoritmini va dasturini ishlab chiqish dolzarb muammo ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushoq-elastik muhitdagi elliptik silindrga garmonik to‘lqinlar ta’siri masalasini qo‘yilishi, yechish metodikasi va algoritmi”** deb nomlangan ikkinchi bobida masalalarning matematik qo‘yilishi va yechish metodikasi keltirilgan (1-rasm). Faraz qilaylik bir jinsli izotrop qovushoq-elastik muhitda joylashgan ellips ko‘ndalang kesimli silindrik qatlamga garmonik to‘lqinlar ta’sir etsin. Hisob sxemasi 1-rasmda keltirilgan. Ellips ko‘ndalang kesimli silindrik qatlam Σ_1 va Σ_2 sirtlar bilan chegaralangan bo‘lsin. Σ_1 ellips ko‘ndalang kesimli sirti orqali qovushoq- elastik muhit bilan aloqada bo‘lsin. Xuddi shunday Σ_2 sirt ham ellips ko‘ndalang kesimli silindrning ichki sirtini beradi va ichkaridagi to‘ldiruvchi bilan chegaralangan sirtini ifoda qiladi. Ellips ko‘ndalang kesimli silindr va uni o‘rab turuvchi qovushoq-elastik muhit harakati operator koeffitsentli elastiklik modullari $\tilde{\lambda}_j$ va $\tilde{\mu}_j, j=1,2$) ga ega:

-muhit uchun operator elastiklik modullari


$$\tilde{\lambda}_1[f(t)] = \lambda_{01} \left[f(t) - \int_0^t R_{c\lambda}(t-s)f(s)ds \right], \tilde{\mu}_1[f(t)] = \mu_{01} \left[f(t) - \int_0^t R_{c\mu}(t-s)f(s)ds \right], \quad (1,a)$$

-qovushoq-elastik elliptik sohadan iborat muhit uchun operator elastiklik modullari:

$$\tilde{\lambda}_2[f(t)] = \lambda_{02} \left[f(t) - \int_0^t R_{\lambda s}(t-s)f(s)ds \right], \tilde{\mu}_2[f(t)] = \mu_{02} \left[f(t) - \int_0^t R_{\mu s}(t-s)f(s)ds \right], \quad (1,b)$$

bu ерда $\tilde{\lambda}_{1,2}$ va $\tilde{\mu}_{1,2}$ operator ko‘rinishdagi elastiklik modullari, $f(t)$ - uzluksiz funksiya; $R_{c\lambda}(t-s), R_{\lambda s}(t-s), R_{c\mu}(t-s), R_{\mu s}(t-s)$ - relaksatsiya yadrolari;

$\lambda_{01}, \lambda_{02}, \mu_{01}, \mu_{02}$ - qovushoq-elastik materiallarning oniy elastiklik modullari.



1- rasm.Ko‘ndalang kesimi ellips bo‘lgan silindrik jismning hisob sxemasi

Lame tenglamasida elastiklik modullari ularning operator ko‘rinishlari bilan almashtirilsa, u holda quyidagi ko‘rinishdagi xususiy hosilali integro-diferensial tenglamalarni vektor ko‘rinishda olamiz:

$$(\lambda_{01} + 2\mu_{01}) \text{graddiv}\bar{u}_1 - \mu_{01} \text{rotrot}\bar{u}_1 - (\lambda_{01} + 2\mu_{01}) \int_0^t R_{c\lambda\mu}(t-s) \text{graddiv}\bar{u}_1(\bar{r}, s) ds + \quad (2,a)$$

$$+ \mu_{01} \int_0^t R_{c\mu}(t-s) \text{rotrot}\bar{u}_1(\bar{r}, s) ds = \rho_1 \frac{\partial^2 \bar{u}_1}{\partial t^2},$$

$$(\lambda_{02} + 2\mu_{02}) \text{graddiv}\bar{u}_2 - \mu_{02} \text{rotrot}\bar{u}_2 - (\lambda_{02} + 2\mu_{02}) \int_0^t R_{\lambda\mu}(t-s) \text{graddiv}\bar{u}_2(\bar{r}, s) ds + \quad (2,b)$$

$$+ \mu_{01} \int_0^t R_{\mu}(t-s) \text{rotrot}\bar{u}_2(\bar{r}, s) ds = \rho_2 \frac{\partial^2 \bar{u}_2}{\partial t^2},$$

$$R_{c\lambda\mu}(t-s) = R_{c\lambda}(t-s) + 2R_{c\mu}(t-s), R_{\lambda\mu}(t-s) = R_{\lambda}(t-s) + 2R_{\mu}(t-s),$$

ρ_j (j=1,2) - materialning zichligi.

Qo‘yilgan masala elliptik kordinatalar sistemasida yechiladi. Bu koordinata sistemasini bilan Dekart koordinatalar sistemasini orasidagi munosabat quyidagicha bo‘ladi:

$$x = cch\xi \cos \eta, \quad y = csh\xi \sin \eta, \quad z = z, \quad (3)$$

$$c^2 = a^2 - b^2, \quad \xi \geq 0, 0 \leq \eta \leq 2\pi.$$

Dissertatsiyada absolyut qattiq elliptik jismning garmonik to‘lqin ta’siridagi qovushoq-elastik muhitdagi harakati, qovushoq-elastik muhitdagi elliptik bo‘shliqning dinamik kuchlanganlik-deformatsiya holati masalalari, hamda ularning xos tebranishlari masalalari analitik qo‘yilishda yechilgan.

Agar fazoviy elliptik silindrning kuchlanish-deformatsiya holati o‘rganilsa (1-rasm), u holda qatlamlar orasida qattiq mahkamlanganlik sharti qo‘yiladi:

$$\sigma_{\xi\xi 1} \Big|_{\Sigma_1} = \sigma_{\xi\xi 2} \Big|_{\Sigma_1}, \sigma_{\xi\eta 1} \Big|_{\Sigma_1} = \sigma_{\xi\eta 2} \Big|_{\Sigma_1}, \sigma_{\xi z 1} \Big|_{\Sigma_1} = \sigma_{\xi z 2} \Big|_{\Sigma_1}, \quad (4)$$

$$u_{\xi 1} \Big|_{\Sigma_1} = u_{\xi 2} \Big|_{\Sigma_1}, u_{\eta 1} \Big|_{\Sigma_1} = u_{\eta 2} \Big|_{\Sigma_1}, u_{z 1} \Big|_{\Sigma_1} = u_{z 2} \Big|_{\Sigma_1}.$$

Xuddi shunday, Σ_2 sirt ellips ko'ndalang kesimli sirtida kuchlanishlardan ozod qilingan bo'lsa, u holda:

$$\sigma_{\xi\xi 2} \Big|_{\Sigma_2} = 0; \quad \sigma_{\xi\eta 2} \Big|_{\Sigma_2} = 0; \quad \sigma_{\xi z 2} \Big|_{\Sigma_2} = 0. \quad (5)$$

Cheksizlikda to'lqinning so'nish yoki yutilish sharti va uning ko'chish amplitudasining chegaralanganligini belgilovchi shartlar qo'yiladi.

Aytaylik, elliptik qattiq jismga tekis bo'ylama garmonik to'lqini ta'sir etsin (1-rasm). U holda ko'chish potentsiallarining ifodasi quyidagicha bo'ladi

$$\varphi_p = \Phi_p e^{i(k_1 y - \omega t)} = \Phi_p e^{i\omega t} e^{ik_1 sh \xi \sin \eta}, \quad (6)$$

bunda Φ_p - tushuvchi to'lqin amplitudasi, ω - tushuvchi to'lqin chastotasi, k_1 - to'lqin soni.

Silindrik jism va muhitning ko'chish vektori quyidagicha bo'ladi

$$\vec{u}_j = \text{grad} \varphi_j + \text{rot} \vec{\psi}_j; \quad \text{div} \vec{\psi}_j = 0. \quad (7)$$

Asosiy masalalar elastiklik nazariyasining tekis deformatsiya holati masalasiga olib kelinadi. Shuning uchun φ_j -bo'ylama va $\vec{\psi}_j(0, \psi, \chi)$ - ko'ndalang to'lqin potentsiallari quyidagi integro-differensial tenglamalarni qanoatlantiradi:

$$\begin{aligned} \nabla^2 \varphi_j - \int_0^t R_{pj}(t-s) \nabla^2 \varphi_j(s) ds &= \frac{1}{c_{0pj}^2} \frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial t^2}, \quad \nabla^2 \psi_j - \int_0^t R_{sj}(t-s) \nabla^2 \psi_j(s) ds = \frac{1}{c_{0sj}^2} \frac{\partial^2 \psi_j}{\partial t^2}, \\ \nabla^2 \chi_j - \int_0^t R_{sj}(t-s) \nabla^2 \chi_j(s) ds &= \frac{1}{c_{0sj}^2} \frac{\partial^2 \chi_j}{\partial t^2}. \end{aligned} \quad (8)$$

bu yerda:

$$\nabla^2 \varphi_j = \left[\frac{1}{a_0^2 J^2} \left(\frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial \eta^2} \right) + \frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial z^2} \right], \quad \nabla^2 \psi_j = \left[\frac{1}{a_0^2 J^2} \left(\frac{\partial^2 \psi_j}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \psi_j}{\partial \eta^2} \right) + \frac{\partial^2 \psi_j}{\partial z^2} \right], \quad \nabla^2 \chi_j = \left[\frac{1}{a_0^2 J^2} \left(\frac{\partial^2 \chi_j}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \chi_j}{\partial \eta^2} \right) + \frac{\partial^2 \chi_j}{\partial z^2} \right].$$

Agar bo'ylama to'lqin o'rganilsa C_{0rj} olinadi, ko'ndalang to'lqin o'rganilsa C_{0sj} olinadi.

Faraz qilaylik, (8) integro-diferensial to'lqin tenglamasidagi integral osti funksiyasi sekin o'zgaruvchi bo'lsin, u holda (8) uchun muzlatish usulini qo'llash mumkin. U holda (8) quyidagi ko'rinishni egallaydi:

$$\nabla^2 \varphi_j = \frac{1}{c_{0pj}^2 \Gamma_{pj}} \frac{\partial^2 \varphi}{\partial t^2}, \quad \nabla^2 \psi_j = \frac{1}{c_{0sj}^2 \Gamma_{sj}} \frac{\partial^2 \psi}{\partial t^2}, \quad \nabla^2 \chi = \frac{1}{c_{0s}^2 \Gamma_{sj}} \frac{\partial^2 \chi}{\partial t^2}. \quad (9)$$

Bu yerda:

$$\begin{aligned} \Gamma_{pj} &= \lambda_{0j} \left[1 - \Gamma_{\lambda_j}^C(\omega_R) - i \Gamma_{\lambda_j}^S(\omega_R) \right] + 2\mu_{0j} \left[1 - \Gamma_{\mu_j}^C(\omega_R) - i \Gamma_{\mu_j}^S(\omega_R) \right], \\ \Gamma_{sj} &= \mu_{0j} \left[1 - \Gamma_{\mu_j}^C(\omega_R) - i \Gamma_{\mu_j}^S(\omega_R) \right], \\ \Gamma_{\lambda_j}^C(\omega_R) &= \int_0^\infty R_{\lambda_j}(\tau) \cos \omega_R \tau d\tau; \quad \Gamma_{\lambda_j}^S(\omega_R) = \int_0^\infty R_{\lambda_j}(\tau) \sin \omega_R \tau d\tau, \\ \Gamma_{G_j}^C(\omega_R) &= \int_0^\infty R_{G_j}(\tau) \cos \omega_R \tau d\tau; \quad \Gamma_{G_j}^S(\omega_R) = \int_0^\infty R_{G_j}(\tau) \sin \omega_R \tau d\tau \end{aligned}$$

mos ravishda materialning kosinus va sinus Fur'ye tasvirlari; ω_R - haqiqiy kattalik.

Vektor ko‘rinishdagi (7) ifodani ko‘chish komponentalari orqali quyidagicha yozish mumkin.

$$u_\xi = \frac{1}{aJ} \left(\frac{\partial \varphi}{\partial \xi} + \frac{\partial \psi}{\partial \eta} + l \frac{\partial \chi}{\partial \xi \partial z} \right), u_\eta = \frac{1}{aJ} \left(\frac{\partial \varphi}{\partial \eta} - \frac{\partial \psi}{\partial \xi} + l \frac{\partial \chi}{\partial \eta \partial z} \right), u_z = \frac{\partial \varphi}{\partial z} + l \left(\frac{\partial^2}{\partial z^2} - \frac{1}{c_s^2} \frac{\partial^2}{\partial t^2} \right) \chi.$$

Umumlashgan Guk qonunidan operator kuchlanishlarni ham ko‘chishlar yoki deformatsiya orqali ifodalash mumkin:

$$\sigma_{\xi\xi} = \frac{(\bar{\lambda} + 2\bar{\mu})}{aJ} \frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \frac{\bar{\lambda}}{aJ} \frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{\bar{\lambda} sh 2\xi}{2aJ^3} u_\xi + \frac{(\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}) \sin 2\eta}{aJ^3} \frac{1}{1},$$

$$\sigma_{\eta\eta} = \frac{(\bar{\lambda} + 2\bar{\mu})}{aJ} \frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{\bar{\lambda}}{aJ} \frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \bar{\lambda} \frac{\partial u_z}{\partial z} + \frac{\bar{\lambda} \sin 2\eta}{2aJ^3} u_\eta + \frac{(\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}) sh 2\xi}{2aJ^3} u_\xi.$$

Elliptik koordinatalar sistemasidan qutb koordinatalar sistemasiga o‘tish uchun quyidagi munosabatlardan foydalanamiz :

$$r = a(ch^2 \xi - \sin^2 \eta)^{1/2}, \theta = \frac{1}{tg(th \xi tg \eta)}.$$

Oxirgi ifodadan foydalanib silindrik (qutb) koordinatalar sistemasida berilgan yutilish shartini elliptik koordinatalarda yozish mumkin.

Elliptik koordinatalarda berilgan ko‘chishlardagi harakat tenglamalari uchun garmonik funksiyalar orqali ifodalanuvchi yechimni quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$\Phi_{1j} = \Re e^{i\omega t} \Phi_j(\xi, \eta), \quad \Psi_{1j} = \Re e^{i\omega t} \Psi_j(\xi, \eta), \quad (10)$$

U holda yangi koordinatalarda asosiy to‘lqin tenglamalari quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\left. \begin{aligned} \frac{\partial^2 \Phi_j}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \Phi_j}{\partial \eta^2} + k_{1j}^2 (ch^2 \xi - \cos^2 \eta) \Phi_j &= 0; \\ \frac{\partial^2 \Psi_j}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 \Psi_j}{\partial \eta^2} + k_{2j}^2 (ch^2 \xi - \cos^2 \eta) \Psi_j &= 0, \\ \frac{\partial^2 X_j}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 X_j}{\partial \eta^2} + k_{2j}^2 (ch^2 \xi - \cos^2 \eta) X_j &= 0, \end{aligned} \right\} \quad (11)$$

bu yerda: $k_{1j} = \frac{\rho_j \omega^2}{\bar{\lambda}_j + 2\bar{\mu}_j} = \frac{\omega^2}{c_{1j}^2 \Gamma_{pj}}$; $k_{2j} = \frac{\rho_j \omega^2}{\bar{\mu}_j} = \frac{\omega^2}{c_{2j}^2 \Gamma_{sj}}$; $J^2 = (ch 2\xi - \cos 2\eta) / 2$

ρ – zichlik; λ, μ – Lamé koeffitsientlari, Γ_{pj}, Γ_{sj} – qovushoqlikni ifodalovchi parametrlar.

Elliptik koordinatalarda berilgan Φ_j va Ψ_j yechimini o‘zgaruvchilarni ajratish usuli bilan yechamiz $F(\xi)G(\eta)$. U holda quyidagini olamiz:

$$\frac{d^2 F_{\phi jk}(\xi)}{d\xi^2} + (b - 0.5a^2(k_1^2 - \gamma^2)ch 2\xi) F_{\phi jk}(\xi) = 0, \quad (12)$$

$$\frac{d^2 G_{\psi jk}(\eta)}{d\eta^2} - (b - 0.5a^2(k_1^2 - \gamma^2)\cos 2\eta) G_{\psi jk}(\eta) = 0, \quad (13)$$

$$\frac{d^2 Z_{\chi jk}(z)}{dz^2} + \gamma^2 Z_{\chi jk}(z) = 0.$$

Oxirgi (13) tenglamani yechimini qator ko‘rinishida izlaymiz:

$$G(\eta) = g_0(\eta) + \varepsilon g_1(\eta) + \varepsilon^2 g_2(\eta) + \dots = \sum_{k=0}^{\infty} \varepsilon^k g_k(\eta). \quad (14)$$

Yechim (14) ni (13) tenglamaga qo'yib, ε oldidagi koeffitsientlarni nolga tenglashtirsak, u holda quyidagi ko'rinishdagi tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\begin{aligned} \ddot{g}_0(\eta) + \delta g_0(\eta) &= 0 \\ \ddot{g}_1(\eta) + \delta g_1(\eta) &= -2g_0 \cos 2\eta \\ \ddot{g}_2(\eta) + \delta g_2(\eta) &= -2g_1 \cos 2\eta \end{aligned} \quad (15)$$

(15) sistema birinchi tenglamasining yechimini quyidagicha yozish mumkin:

$$g_0 = a \cos(\omega\eta + \beta), \delta = \omega^2.$$


Bu yerda α va β - ixtiyoriy o'zgarishlar. Xuddi shunday (15) ni ikkinchi tenglamasi

$$\ddot{g}_1(\eta) + \omega^2 g_1(\eta) = -a \cos[(\omega + 2)\eta + \beta] - a \cos[(\omega - 2)\eta + \beta].$$

umumiy holda bu tenglamalarning yechimlari orqali ifoda qilinadi. Bu yerda a va ω - kompleks kattaliklar. Hisoblashlarda Matye funksiyasining qator ko'rinishidagi ifodalaridan foydalanamiz:

$$\begin{aligned} ce_0(\eta, q) &= 1 + \sum_{r=1}^{\infty} \left\{ \frac{2^{r+1} q^r}{r|r|} - \frac{2^{r+3} r(3r+4)q^{r+2}}{(r+1)!(r+1)!} + O(q^{r+4}) \right\} \cos 2r\eta, \\ ce_1(\eta, q) &= \\ &= \cos \eta + \sum_{r=1}^{\infty} \left\{ \frac{2^r q^r}{(r+1)!r!} - \frac{2^{r+1} r q^{r+1}}{(r+1)!(r+1)!} + \frac{2^r q^{r+2}}{(r-1)!(r+2)!} + O(q^{r+3}) \right\} \cos(2r+1)\eta, \\ se_1(\eta, q) &= \sin \eta + \\ &+ \sum_{r=1}^{\infty} \left\{ \frac{2^r q^r}{(r+1)!r!} - \frac{2^{r+1} r q^{r+1}}{(r+1)!(r+1)!} + \frac{2^r q^{r+2}}{(r-1)!(r+2)!} + O(q^{r+3}) \right\} \sin(2r+1)\eta, \\ ce_2(\eta, q) &= \left\{ -2q + \frac{40}{3}q^3 + O(q^3) \right\} \cos 2\eta + \\ &+ \sum_{r=1}^{\infty} \left\{ \frac{2^{r+1} q^r}{(r+2)!r!} + \frac{2^{r+1} r(47r^2 + 222r + 247)q^{r+2}}{3^2(r+2)!(r+3)!} + O(q^{r+4}) \right\} \cos(2r+2)\eta, \end{aligned} \quad (16)$$

$q \rightarrow 0$ bo'lganda, qator $q \rightarrow O(q^6)$ tartibli aniqlikka ega. Matye funksiyalarni turlicha ko'rinishlari mavjud bo'lib ular yordamida argumentga qiymat berib funksiyaning qiymati topiladi.



2- rasm. Matye funksiyasining ordinata parametri bo'yicha o'zgarishi

Hisoblashlarda qator ko'rinishidagi ifodalardan foydalanamiz. Matye funksiyasini o'zgarishi 2- va 3- rasmlarda keltirilgan. Kompleks argumentli Matye funksiyasini hisoblash qiyinchiliklarga olib keladi. Buning uchun kompleks sonning trigonometrik formasidan foydalandik.

Yuqorida keltirilgan Matye tenglamasini davriy yechimi mavjudligi Floke tomonidan o'rganilgan. Bu teoremaga binoan differensial tenglama $e^{\mu\eta}\varphi(\eta)$ xususiy yechimga ega, bunda $\varphi(\eta)$ – davri 2π bo'lgan funksiya. Bu funksiya η dan $-\eta$ ga o'tganda o'zgarmaydi.


Matyening differensial tenglamasini umumiy yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$u = c_1 e^{\mu\eta} \varphi(\eta) + c_2 e^{-\mu\eta} \varphi(-\eta).$$

Bu yerda c_1 va c_2 -ixtiyoriy o'zgarmlar.

Aniq sonli hisoblashlar (16) qator yig'indisini hisoblash bilan amalga oshiriladi. Kontur kuchlanishlarni hisoblash uchun quyidagilardan foydalanamiz:

$$\sigma_{\eta\eta} = (\text{Re} + i \text{Im}) e^{-i\omega t} = \sqrt{\text{Re}^2 + \text{Im}^2} e^{-i(\omega t - \gamma)}, \quad \gamma = \arctg \frac{\text{Im}}{\text{Re}}$$



3- rasm. Matye funksiyasining ordinata parametri bo'yicha o'zgarishi

Shunday qilib, dissertatsiya ishining ikkinchi bobida garmonik to'liqlarning ellips ko'ndalang kesimli jismga tushishi masalasi o'rganildi. Qovushoq-elastik muhitda joylashgan quvurning kuchlanishi va deformatsiyasi orasidagi munosabat Bolsman-Volterra integrali orqali yozilgan. Olingan integro-differensial tenglamalar sistemasining xususiy yechimini topish uchun chegaraviy shartlar keltirilgan. Bu tenglamalar sistemasidan Filatov va Sunchaliyevlar tomonidan ishlab chiqilgan "muzlatish" usuli yordamida kompleks koeffitsientli xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasi hosil qilingan. Ellips ko'ndalang kesimli silindrik jismga garmonik to'liqlarning ta'siri masalasi elastiklik nazariyasining ko'chish potentsiallari orqali yechish metodikasi va algoritmi ishlab chiqilgan. Muhit va ellips ko'ndalang kesimli silindrik jismning harakat differensial tenglamalari kompleks parametrli Gelmgols tenglamasiga olib kelindi, hamda yechim kompleks argumentli Matye funksiyalari orqali topilgan. Topilgan yechim chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi. Bu sistemani yechish va sonli natijalar olish uchun chekli ayirmalar usuli, Gauss va Laplas usullariga asoslangan metodika va algoritm ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning "**Qovushoq-elastik muhitda joylashgan ellips ko'ndalang kesimli deformatsiyalanuvchan silindrik jismning tebranishlari**" deb nomlangan uchinchi bobida elastik muhitda joylashgan elliptik jismlarning xos tebranishlari masalasi ko'rilgan. Bunday masalalar juda kam o'rganilgan bo'lib, asosan muvozanat yoki harakat tenglamalari xususiy hosilali integro differensial tenglamalardan iborat bo'ladi. Elastik muhitda joylashgan elliptik jismning xos tebranishi to'liq o'rganilmagan. Muhit nuqtalarining tebranishlari elastiklik

nazariyasining Lamé tenglamasini qanoatlantiradi. Sonli natijalar olingan va tahlil qilingan. Cheksizlikda Zommerfeldning yutilish sharti o‘rniga, uning qisqartirilgan shaklidan foydalanish tavsiya etiladi.

Qovushoq-elastik muhitda joylashgan elliptik bo‘shliqning xos tebranishlari tenglamasi qovushoq-elastiklik nazariyasining tekis masalasi uchun ikkinchi bobda keltirilgan Lamé tenglamasidan foydalanib olindi. Bo‘shliq chegarasida kuchlanishlarning nol bo‘lish sharti qo‘yiladi:

$$\left[\frac{(\lambda + 2\mu)}{aJ} \frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \frac{\lambda}{aJ} \frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{\lambda sh 2\xi}{2aJ^3} u_\xi + \frac{(\lambda + 2\mu)}{2aJ^3} \sin 2\eta u_\eta \right]_\Gamma = 0, \quad (17)$$

$$\left[\frac{\lambda}{aJ} \frac{\partial u_\xi}{\partial \xi} + \frac{\lambda}{aJ} \frac{\partial u_\eta}{\partial \eta} + \frac{\lambda sh 2\xi}{2aJ^3} u_\xi + \frac{\lambda}{2aJ^3} \sin 2\eta u_\eta \right]_\Gamma = 0.$$

Agar (5) chegaraviy shartlardan foydalanilsa, u holda kompleks koeffitsientli bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz. Bu bir jinsli tenglamalar sistemasi notrivial yechimga ega bo‘lishi uchun uning noma’lumlar oldidagi koeffitsiyentlaridan tuzilgan asosiy aniqlovchisi nolga teng bo‘lishi kerak. Asosiy aniqlovchining elementlari kompleks parametr ω ning funksiyasi hisoblanadi. Bu munosabatdan kompleks parametr ω ni aniqlash uchun quyidagicha chastota tenglamasini olamiz:

$$(n^2 - 1)F_n(x)F_n(y) - (y^2/2)F_n(x) + F_n(y) + n^2 - (n^2 - y^2/2)^2 = 0, \quad (18)$$

